

О'zbek tilida qizil va qora ranglarning salbiy va ijobiy attenkalari

Murodova Hafiza Muhammadjonovna

O'zbekiston tumani 36-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilimizda ko'p uchraydigan rang-tus sifatlaridan qizil va qora ranglarining tahlili hamda ularning salbiy va ijobiy attenkalari haiqda fikr-mulohazalar yuritilgan. Maqolada shuningdek, qizil va qora ranglaridan foydalanish hususiyatlari, ularning toponomikasi hamda frozologik tadqiqi ham o'rinn olgan.

Kalit so'zlar. Rang-tus, qizil va qora, salbiy va ijobiy, turkum, tilshunoslik, ma'nno, sifat, miqdor, o'rganish, tadqiqot.

ОТРИЦАТЕЛЬНАЯ И ПОЗИТИВНАЯ ПОСЕЩАЕМОСТЬ КРАСНО-ЧЕРНЫХ ЦВЕТОВ В УЗБЕКАХ

Murodova Hafiza Muhammadjonovna

Учител узбекистанского района № 36

Аннотация. В данной статье обсуждается анализ красного и черного, среди наиболее распространенных цветных прилагательных в нашем языке, а также их отрицательные и положительные стороны. В статье также представлены особенности употребления красного и черного цветов, их топонимия и фрэсологические исследования.

Ключевые слова. Цвет, красное и черное, отрицательное и положительное, категория, лингвистика, значение, качество, количество, обучение, исследование.

NEGATIVE AND POSITIVE ATTENDANCES OF RED AND BLACK COLORS IN UZBEK

Murodova Hafiza Muhammadjonovna

Teacher of Uzbekistan district № 36

Abstract. In this article, the analysis of red and black, among the most common color adjectives in our language, as well as their negative and positive aspects, is discussed. The article also includes the features of using red and black colors, their toponymy and phrasological research.

Keywords. Color, red and black, negative and positive, category, linguistics, meaning, quality, quantity, learning, research.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar turkiy xalqlar urf-odatlarida alohida mavqe kasb etadi. Bir turkum rang-tus bildiruvchi sifatlar borki, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobjiy yoki salbiy ta‘sir bahosi bilan ana shu urf-odatlarni ifodalasa, yana bir turkum sifatlar boshqa turkumdagи so‘zlar (ko‘proq ot turkumiga mansub so‘zlar) bilan qo‘silib, qo‘shma ot yoki so‘z birikmasi shaklida urf-odatlarning ifodachisiga aylanadi. Yoki yana bir turkum sifatlar bevosita otga ko‘chib ana shu vazifani ado etishga moslashadi. [1, B.14]

Tilimizda qizil va qora ranglarining salbiy attenkalarini haqida fikr bildirsak, bu haqida juda ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan o‘tmishda bolalar o‘rtasida badaniga qizil toshmalar (qizamiq kasalligi) toshishi ko‘p kuzatigan. Hozirdagi mavjud vaksinalar – emlash vositalari bo‘Imaganidan, bu kasalliklar “qizil ko‘ylak”, “chechak” (ya’ni qizil gul) deb atalgan. Insujinslarga ishonish natijasida yoki ayrim irimlar nomida ham rang-tus sifatları istifoda qilingan.[2, B. 40] Masalan, ketayotgan odamning oldidan qora mushuk kesib o‘tsa, ishi o‘ngidan kelmasligiga sabab qilib ko‘rsatilgan. Yoki ba’zi bir ayollar musibatli xonadonlarga bir borib kelsa, kasallikka chalinib qolaverGANidan, “qoramni sotib kelaman”, deya azayimxonlarga qatnashgan. O‘g‘il bolalarni sunnatga yotqizish paytida “qora chiroq” (yog‘ to‘lg‘azilgan pilikli idish)ni yoqib, undan ham yoritish maqsadida, ham kulidan malham o‘rnida foydalanganlar va buni ham ilohiylik bilan bog‘laganlar. Ko‘rinib turibtiki, qizil va qora ranglari attenkakalaridan salbiy jihatlarni ifodalashda ishlatilgan tilizmida ko‘plab misollar mavjud.

Ushbu ranglarning jobiy attenkalariga misol sifatida esa, ro‘zg‘orni moddiy ta‘minlash maqsadini ifodalashda ham rang-tus sifatları bo‘lgan qizil va qora ranglardan foydalanilganini kuzatish mumkin: Qora qozonim qaynab turibdi; Uyida qo‘ra qumg‘oni vaqillab turibdi kabilarni bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Ayrim odamlarning fe'l atvori, kishining kishiga zulmini ifodalash, biror tashrifni izohlash maqsadida ham ana shu “qora”, “oq”, “qizil” sifatlarini istifoda qilish odati bor. Agar birorta odamning xasadgo‘yligini, janjalkashligini ifodalash zarur bo‘lsa “ichi qora odam” deyiladi. “El o‘rtasida yuzi qora bo‘ldi” deyilganda ham xalqning biror niyati bayon etiladiki, bunda ayrim kishilar yolg‘on gapirib yoki nojo‘ya ish qilib sharmanda bo‘lgani anglashiladi. Uzoqdan tanish yoki notanish kimsa ko‘rinsa, “falonching qorasi ko‘rindi”, “birovning qorasi ko‘zga tashlandi”, deyiladi. Yoki birov birovni vosita qilib bir yumush bilan kelgan bo‘lsa, “falonchi Ahmadboyni qora qilib kelgan edi” deyiladi. Yana, kishi kishini g‘iybat qilsa ham, “shunday odamni qora qildi-ya”, deydilar.[3, B.18]

Jamiyatimizda odat tusiga aylangan ba'zi diniy urf-odatlar ham borki, unda rang-tus sifatlari orqai yangi mani ifoalashda foydalilanilgan va kundalik turmush tarzida ham muqim o'rin tutib kelmoqda. Diniy qarashlarga nazar tashlansa ham, buning dalilini yaqqol ko'rish mumkin. Xizr alayhissalomni to davri qiyomatgacha barhayot ekanligini "yashil" sifati bilan ifodalash barcha musulmon mintaqalarga xos. Yoki "qora" rang-tus sifati "ulug'lik" "donishlik", "buzruklik" ma'nolarida istifoda etilganligi sababidan "qoraxoniylar" sultanati qurilgan va mintaqamizda davlatchilikning ilk ko'rinishlaridan biri sifatida ikki yuz yil davomida barqaror davlat maqomida turgan. Yurtimizning deyarli barcha hududlarida mavjud bo'lgan "Qoratepa", "Qiziltepa", "Qizilcha", "Tepaqora", "Qorachitol", "Qirmiz" singari toponimlar ham bejiz qo'yilmagan. Masalan, "Qoratepa" toponimida tuproqning qoralig'i (denotativ ma'no), ham biror ulug' – aziz-avliyo dafn etilgan hududni anglatgan bo'lsa, "Qiziltepa" toponimi tuproqning qizilligi hamda tepaliklardan iboratligini anglatgan. Yoki turkiylarning issiq yoki sovuq ma'rakalarida ayni rang-tus sifatlari ularning ruhoniylarini ham o'zida namoyon qilgan. Masalan, oldilaridan qora mushuk o'tsa, bosh kiyimlarini uch marta aylantirib, kalima o'girish odati yaqin-yaqingacha saqlanib kelgan. Azalarda qora yoki ko'k rangli kiyimlar kiyish, aza nihoyasida oq rangli kiyimlar (yoxud ro'mol o'rash) bilan almashtirish, rang-tus sifatlarini orttirma darajada istifoda qilib, "hayotimning qop-qora kunlari", "bu odam qip-qizil jinni bo'libdi" deyishlari ham ana shunday hayotiy jarayonlar bilan bog'lanib ketadi.[4, B. 24]

O'zbeklarning kiyim-kechaklari leksikasida ham rang-tus sifatlari jumladan qizil va qora ranglari bilan bog'liq predmetlar keng istifoda qilingan. Deylik, kiyim qanday matodan tikilgan bo'lsa, o'sha matoning rang-tusi hisobga olinib nomlangan. Chunonchi, "qora chopon" – qora rangli ipdan to'qilgan bo'zdan tikilgan chopon nazarda tutilgan bo'lsa, "qizil chakmon" qizil rangli jun ipdan to'qilgan matodan tikilgan chakmon nazarda tutilgan. Bundan tashqari, kiyim-kechak leksikasida "qizil to'n", "qora to'n" singari birikmali kiyim-kechak nomlari ham uchraydi.

Yuqoridaagi keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, tilimizdagи rang – tusni ifodalovchi qizil va qora ranglarining attenkalarining ijobiyl ma'noni anglatuvchi so'zlar bilan birga salbiy ma'nolarni anglatuvchi jihatlari ham uchrab turadi. Bugungi kunda ham qizil hamda qora ranglari bilan bog'liq bo'lgan ko'plab jumlalar hamda iboralar, so'z birikmalari kundalik hayotimizda muqim o'rin egallab ulgurgan. Ko'tarilgan muammoni tadqiq etish ularni kelib chiqishi, ijobiyl hamda salbiy attenkalari,

qo'llanilishiga doir hali o'z yechimini kutib yotgan boshqa jihatlarini kengroq tushunish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol. fan. nomzodi ... diss. avtoref. – T.:2008. – B. 14.
2. Mamadalieva M. Nomlovchi birliklarning ichki ma'nolari // O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 2000. – №. 6. – B. 40-42.
3. Mamarajabova Z. O'zbek tilida sifatlarning konnotativ ma'nolari: Filol. fan. nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – B. 18.
4. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. T.: Fan, 1074.